

AXBOROT TIZIMLARI VA MA'LUMOTLAR HIMOYASI BO'YICHA QONUNCHILIK

Fatullayev Behruz Botir o'g'li

Annotatsiya. *Axborot tizimlari, hozirgi dunyoda ahamiyatli bir yo'naltiruvchi hisoblanadi. Axborot tizimlari (AT) bugun dunyoning har bir sohasida katta ahamiyatga ega. Ularning rivojlanishi bilan birga yuqori tezlik, ishonchli xavfsizlik, keng doirada ma'lumotlarni almashish va o'zaro aloqalar sohasida yanada yuksak imkoniyatlar mavjud bo'lishi ham kutilmoqda. Ushbu maqolada axborot tizimining xavfsizligi va ma'lumotlarni himoya qilishning qonunchilikdagi asoslari ko'rib chiqilgan. Axborot tizimining xavfsizligi insonlarning shaxsiy ma'lumotlarini tarqalmasligi, kiberjinoyatchilikning kamayishi hamda elektron shakldagi ma'lumotlarni himoya qilishning imkonini beradi. Ushbu maqolada hozirda axborot tizimi bo'yicha qonunchilik, uning hozirgi ko'rinishi, ma'lumotlarning himoyasini ta'minlashda davlat siyosatining roli haqida, kiberjinoyatchilikni kamaytirish uchun axborot ongini rivojlantirish kerakligi, dasturchilik sohasini qo'llab-quvvatlash orqali jinoyatchilik bo'yicha statistikani kamaytirish imkonini berishini ko'rib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *axborot tizimi, axborot xavfsizligi, electron tijorat, davlat siri, maxfiy axborot, avtomatlashtirish, IT, kiberjinoyat, kibermakon, kiberxavfsizlik.*

Kirish.

Avvalo, qsiqacha qilib axborot tizimi tushunchasiga to'xtalib o'tsak, qonunchilikdagi **“Axborotlashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonunining 3-moddasida** axborot tizimi – axborotni to'plash, saqlash, izlash, unga ishlov berish hamda undan foydalanish imkonini beradigan, tashkiliy jihatdan tartibga solingan jami axborot resurslari, axborot texnologiyalari va aloqa vositalari hisoblanadi.³² Ushbu moddaning qismlarga bo'lib sharhlaganda, axborot va ma'lumotlarni to'plash, ularni electron saqlash hamda ulardan foydalanish imkonini beradigan texnologiya tushunilishi hamda barcha ma'lumotlar to'plangan axborot resursi hisoblanishi aytib o'tilgan. Axborot tizimi tushunchasiga ilmiy darsliklar bo'yicha bu ish tizimi hisoblanib, uning faoliyati axborotni

³² “Axborotlashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-83472>

olish, uzatish, saqlash, manipulatsiya qilish va ko‘rsatishga bag‘ishlangan, ma‘lumotlar ijtimoiy xotira shakli sifatida ifodalanadigan va qayta ishlanadigan aloqa tizimi shaklidir.³³

Aynan ushbu axborot tizimlari haqida **Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov** ta‘kidlaganlaridek: *“Bugungi kunda milliy axborot tizimini shakllantirish jarayonida Internet va boshqa global axborot tizimlaridan foydalanish, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega. Bunga erishish XXI asrda mamlakat taraqqiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi”*.

Asosiy qism.

Endi bizga berilgan mavzu bo‘yicha asosiy masalaga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bunda axborot tizimidan yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida bitimlar tuzishda foydalanilishi mumkin. Axborot tizimini muhofaza qilish bo‘yicha **“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonunning 19-moddasi** bo‘yicha bir necha maqsadlar asosida amalga oshiriladi:

- ❖ Shaxs, jamiyat va davlatning axborot xavfsizligini ta‘minlash;
- ❖ Axborot resurslarining tarqalib ketishi, o‘g‘irlanishi, yo‘qotilishi, buzib talqin etilishi, to‘siq qo‘yishi, qalbakilashtirilishi va ulardan boshqacha tarzda ruxsatsiz erkin foydalanilishining oldini olish;
- ❖ Axborotni yo‘q qilish, axborot resurslari va axborot tizimlariga boshqa shaklda aralashishlarning oldini olish;
- ❖ Axborot resurslaridagi mavjud davlat sirlari va maxfiy axborotni saqlash.

Axborot tizimidagi maxfiylik va ulardagi ma‘lumotlarni himoyasi juda kuchli bo‘lishi kerak, chunki davlatning butun bir axborot tizimiga kiberhujum qilinadigan bo‘lsa, u yerdagi juda ko‘p davlat sirlariga oid yoki aholining shaxsiy ma‘lumotlari xavf ostida qolishi mumkin. Yuqorida axborot tizimini nega himoya qilinishi haqida gaplashdik, aynan ushbu maqsadlarni amalga oshirishda har bir axborot mulkdori o‘ziga qarashli bo‘lgan axborotga nisbatan javobgar hisoblanishi kerak. Ommaning axborot bo‘yicha madaniyatini rivojlantirish orqali insonlarning axborot tizimidagi ma‘lumotlarini xavfsiz saqlash imkonini yanada osonlashtirishi mumkin. Texnik darajasi bo‘yicha axborot tizimlari bir necha tizimlarga bo‘linadi:

- ✓ Dastlabki;
- ✓ Mexanizatsiyalashgan;
- ✓ Avtomatlashtirilgan;

³³ Saidov, J. D. Study of the process of database and creation in higher education. Guliston. 2021. - <https://www.in-academy.uz/index.php/cajmrms/article/view/29188/18768>

✓ Avtomatlashgan.

Dastlabki axborot tizimida yaratiladigan barcha jarayonlar qo’lda bajariladi. Mexanizatsiyalashgan axborot tizimida axborotga ishlov berish va qidirish uchun turli vositalardan foydalaniladi, ular orasida axborot eltuvchisi hisoblanadigan perfokartalardan foydalaniladi.

Hozirgi kunda axborot tizimlari bo’yicha bir nechta qonunlar va qarorlar qabul qilingan, axborot tizimidan eng ko’p foydalaniladigan va chiqarilayotgan normative-huquqiy hujjatlar Ichida biznes sohasida foydalaniladiganlari juda ko’p. Chunki hozirgi rivojangan zamonda ma’lumotlar elektronlashmoqda, bozor oldi-sotdi jarayoni ham electron yoki online tarmoqda bajarilmoqda. Xuddi shuningdek, aynan axborot tizimlariga yoki turli electron ma’lumotlarga qilinadigan kiberhujumlar ham, asosan, biznes sohasida amalga oshirilmoqda. Biznes sohasida bir nechta axborot tizimlaridan foydalaniladi:

- Electron tijorat tizimlari;
- Tranzaktsiyalarni qayta ishlash;
- Boshqaruv AT;
- Qarorlarni qabul qilish tizimlari
- Ekspert tizimlar;

Ushbu tizimlarni har biri haqida qonunchiligimiz bo’yicha ko’rib chiqamiz. Elektron tijorat – axborot texnologiyalari yordamida oldi-sotdi ishlarini bajarish va xizmat ko’rsatish bo’yicha tadbirkorlik faoliyatining an’anaviy hayotdagi ko’rinishining virtual hayotdagi namunasi hisoblanadi. **Electron tijorat bo’yicha O’zbekiston Respublikasining 792-sonli “Elektron tijorat to’g’risida”gi qonunining 3-moddasida** electron tijorat tushunchasiga quyidagicha ta’rif berilgan: “tovarlarning tadbirkorlik doirasida axborot tizimlaridan foydalanilgan holda electron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan oldi-sotdisi”. Hozirgi kunda biznes sohasida ishlatiladigan axborot tizimi uzex.uz sayti orqali amalga oshiriladi, chunki ushbu saytda electron tijoratning har qanday ko’rinishini topish mumkin.



Ushbu rasmda keltirilgan sayt elektron tijorat bo'yicha O'zbekistonning sayti hisoblanadi. Endi axborotlarni himoya qilish va ularni muhofaza etish bo'yicha qonunchilikni ko'rib chiqadigan bo'lsak, "Axborot erkinliklari va kafolatlari to'g'risida"gi qonunda ham axborot tizimidagi axborotlarning himoya qilinishi bo'yicha ta'kidlab o'tilgan. Shaxs axborotdan foydalanishda biror shaxsning ma'lumotlaridan foydalanishda uning roziligisiz va uning shaxsiy hayotiga oid ma'lumotlarni tarqatmasligi kerak. Har bir shaxs axborotdan foydalanishda boshqalarga moddiy zarar yetkazmasligi kerak. Ushbu qonunning **15-moddasi** bo'yicha davlatning axborot sohasidagi xavfsizligi bir necha yo'llar bilan amalga oshiriladi:³⁴

- 1) axborot sohasidagi xavfsizlikka tahdidlarga qarshi harakatlar yuzasidan iqtisodiy, siyosiy chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- 2) davlat sirini va ruxsatsiz foydalanishdan muhofaza qilish;
- 3) integratsiyalashuv;
- 4) davlat tuzumiga va hududiy yaxlitligini, suverenitetini buzishga qaratilgan axborotlarni tarqalishini oldini olish;
- 5) diniy ekstremizm g'oyalarini o'z ichiga olgan axborotlarni tarqalishidan himoya qilish.

³⁴ "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/acts/-52268>

Bularning barchasida axborot tizimida amalga oshiriladigan jinoyatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'riladi hamda davlat organlari tomonidan ushbu holatlar sodir etilmasligi uchun tegishli choralar ko'rilishi belgilangan.

Endi xalqaro tajribalarni ko'rib chiqamiz. Yaponiyada ma'lumotlarni himoya qilishning bir necha mexanizmlari mavjud:

- 1) Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risidagi qonun (**PIPA**) – 2005-yilda qabul qilinga va 2017-yildan to'liq kuchga kirgan. Ushbu tizim biznes va dalat organlarida shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashni boshqaradi.
- 2) **APPI** – bu ham shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish to'g'risida qonun, ammo bu qonuni 2015-yilda ishlab chiqilgan. Bu qonunda xususiy sektor korxonalarining shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlashini tartibga soladi.
- 3) **YEL** – Yaponiya muvofiqligi to'g'risidagi qarori – 2019 -yilda Yevropa Komissiyasi Yaponiyani Yevropa Ittifoqi va Yaponiya o'rtasida shaxsiy ma'lumotlarning erkin aylanishini ta'minlovchi ma'lumotlar himoyasining tegishli darajasini ta'minlovchi sifatida tan oladi.

Yaponiyada yana shuningdek, bir necha electron tizimlardan foydalaniladi. Bunda korxonani tashkillashtirish tizimlari (**ERP**) – bu mamlakatdagi moliya tarmog'idagi boshqaruvni amalga oshiradi. Boshqa mamlakatlarda kam uchratish mumkin bo'lgan holat – sog'liqni saqlash axborot tizimidir. Aynan shunday turdagi axborot tizimlari Yaponiyda bemorlar tasvirlari, telemeditsina axborot tizimlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan rivojlangan va zamonaviy texnologiya bilan jihozlangan tizimi mavjuddir. (**EHR**)³⁵

Umumiy qilib, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi barcha qonunlarni ko'rib chiqsak:

- ❖ **Axborotlashtirish to'g'risida 560-II-sonli qonun**³⁶ – ushbu qonunda axborot tizimlarining mulkdorlarining huquqlari hamda majburiyatlari, davlat axborot tizimining nazorat qiluvchi organlari haqida, axborot tizimlarini va axborot resurslarini himoya qilish shakllari haqida ma'lumotlar beradi;

³⁵ <https://content.iospress.com/articles/information-infrastructure-and-policy/iip086> - Information systems in Japanese government

³⁶ “Axborotlashtirish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-83472>

- ❖ **Elektron tijorat to‘g‘risidagi 792-sonli qonun³⁷** – biznes sohasidagi axborot tizimini nazorat qilish, electron shartnomalar tuzish, electron tijoratga oid davlat siyosati, uning vazifalari va axborotlarni muhofaza qilish haqida ma‘lumotlar beradi;
- ❖ **Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risidagi 439-II-sonli qonun³⁸** – ushbu qonunda axborot sohasidagi xavfsizlik, maxfiy axborotlar, turli ruxsat etilmagan axborotlarni tarqatmaslik, axborotlarning ochiqligi va shaffofligi, axborot olish va rad etish asoslari haqida ma‘lumotlar beradi;
- ❖ **Axborotlashtirish sohasida normative-huquqiy bazani takomillashtirish³⁹ to‘g‘risida** – bu Vazirlar Mahkamasining 256-sonli qarori hisoblanadi. Bu qarorning nizomida davlat axborot resurslariga kiritiladigan axborotni hujjatlashtirishga qo‘yiladigan asosiy talablar, hujjatlashtirilgan axborotning asosiy rekvizitlari, davlat axborot resurslarini shakllantirish tartibi haqida, axborot xavfsizlikni ta‘minlash to‘g‘risida kerakli ma‘lumotlar va majburiyatlar belgilangan;
- ❖ **Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida 848-XII-sonli qonun⁴⁰** – axborot tizimidagi davlat sirini saqlash, axborotni maxfiylashtirish muddatlari va Davlat xavfsizlik xizmatining axborot tizimidagi davlat siriga oid ma‘lumotlarni saqlash bo‘yicha vakolatlari haqida ma‘lumot berilgan.
- ❖ **Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida 611-II-sonli qonun⁴¹** – electron hujjatning yuridik kuchi qog‘ozdagi hujjat bilan teng ko‘rilishi, electron hujjatni jo‘antish, qabul qilib olish shakllari, bu turdagi hujjatni muhofaza qilish shakllari belgilangan. Bu qonunda axborot tizimida aylanadigan ma‘lumotlarning hozirda muhim ahamiyatga ega ekanligi, insonlarning xayolida electron shakldagi hujjat bu hujjat emas degan fikrni yo‘qotish uchun xizmat qiladi;
- ❖ **Kiberxavfsizlik to‘g‘risidagi 764-sonli qonun⁴²** – ushbu qonun kibermakonda bo‘ladigan hodisalar haqida, undagi kiberhujumlar, kiberjinoyatlarga javobgar davlat

³⁷ “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-6213382>

³⁸ “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/acts/-52268>

³⁹ “Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori - <https://lex.uz/docs/-925847#-927048>

⁴⁰ “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-98850#-98878>

⁴¹ “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-165079>

⁴² “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>

organlari haqida ma’lumot beriladi. Kiberhimoya shakllari, axborot infratuzilmasi haqida ma’lumot beradi. Ushbu qonun bo’yicha aytadigan bo’lsak, Davlat xavfsizlik xizmati kiberxavfsizlik sohasidagi vakolatli davlat organi ekanligi hamda ushbu organing qoshida hozirda Kiberavfsizlik markazi tashkil etilgani, ushbu organlarning kibermakondagi vazifalari va majburiyatlari belgilangan.

O‘zbekiston Qonunchiligi bo’yicha axborot tizimi sohasiga oid qonunlar mavjud. Endi aynan ushbu qonunlarda belgilangan bandlarga har bir shaxs ham to’la amal qila olmaydi, ya’ni yuqorida keltirilgan qonunlarning bandlarini buzganlik uchun qanday javobgarlik borligini Jinoyat kodeksi hamda Ma’muriy kodeks qismlaridan bilib olamiz. **Jinoyat kodeksining XXI¹ bobi⁴³** aynan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarga bag’ishlangan. Ushbu bobda axborotlashtirish qoidalarini buzish – **278-modda**- bu axborotning himoya chorasini ko’rmagan holatda axborot va ma’lumotlar bazalaridagi fuqarolarning huquqlariga zarar keltirish holati kuzatilsa bazaviy hisoblash miqdorining 50 baravarigacha jarima belgilanishi aytilgan. Bu modda axborot tizimini ta’minlashi kerak bo’lgan davlat organlariga nisbatan qo’llaniladi. Chunki ushbu organlar fuqarolarning shaxsiy hayotiga tegishli bo’lgan ma’lumotlarni saqlashi va ularni himoya qilish zarur. Undan keying moddalarda ham fuqarolarning kompyuter sohasidagi axborot tizimiga keltirishi mumkin bo’lgan zararlariga oid jinoyatlar berilgan.

Xulosa.

Umumiy xulosa qiladigan bo’lsak, O‘zbekistonda axborot tizimi borasida hozirda yangi qonunlar va yangicha texnologiyalar yaratilmoqda. Ushbu qonunlarda yangi chiqayotgan texnologiyalardan foydalanish tartiblari, qo’llanish sohalari belgilangan. Bizning axborot sohasidagi muammolarimiz juda ko’p, chunki *2022-yilda O‘zbekistondagi eng katta davlat organi hisoblanadigan Senatning saytini namanganlik 15 yoshli fuqaro* tomonidan buzib kirilishi⁴⁴ davlatning axborot sohasidagi xavfsizlikni ta’minlash bo’yicha ancha ishlari mavjudligini ko’rsatadi. Menimcha, bu kabi holatlarga yechim berishda bir necha ishlarni amalga oshirish kerak:

- ✓ **Xalqning axborot madaniyati ongini oshirish zarur** – insonlarda o’zlarining shaxsiy ma’lumotlarini boshqa shaxslarga bermaslik holatini rivojlantirish kerak. Misol uchun

⁴³ Jinoyat kodeksi – XXI bobi – Axborot sohasiga oid jinoyatlar - <https://lex.uz/acts/-111453>

⁴⁴ Kun.uz [https://kun.uz/news/2023/08/10/oz-sohamda-eng-kuchli-mutaxassis-bolishni-xohlayman-senat-saytini-buzib-kirgan-15-yoshli-haker-bilan-suhbat](https://kun.uz/news/2023/08/10/oz-sohamda-eng-kuchli-mutaxassis-bolishni-xohlayman-senat-saytini-buzib-kirgan-15-yoshli-haker-bilan-suhbat?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F08%2F10%2Foz-sohamda-eng-kuchli-mutaxassis-bolishni-xohlayman-senat-saytini-buzib-kirgan-15-yoshli-haker-bilan-suhbat)

siz o‘zingizning passportingizni electron nusxasini eng yaqinigizga berishingiz mumkin, u insondan boshqa shaxs olishi mumkin, bu holatda sizning eng kerakli shaxsiy ma’lumotlaringiz mavjud hujjat tez tarqalishi mumkin. Bu hujjatni olgan kiberjinoyatchilar esa sizning nomingizdan ish ko‘ra oladilar. Bunday holatlarni kamaytirish kerak, passport ma’lumotlarni iloji boricha o‘zimiz berishimiz va biror ish qiladigan bo‘lsak, shaxsiy ma’lumotlarga ehtiyot bo‘lishimiz kerak.

- ✓ IT sohasini rivojlantirish kerak – ushbu soha juda samarali usul deb o‘ylayman, chunki insonlarning ma’lumotlarini himoya qilish uchun yetarli darajada tajribaga ega bo‘lgan dasturchilar zarur. Misol uchun, hozirda kiberjinoyatchilikning fishing usuli keng tarqalmoqda, ushbu jinoyat turida insonlarni aldash orqali ularning kartalaridagi mablag‘lari yechib olinmoqda. Bu turdagi jinoyatlarni amalga oshirayotgan hakerlarni topish murakkab ish hisoblanadi. Hozirda kiberjinoyatchilikning 25 % foizidan deyarli 5% igina fosh etilgan. Bu eng katta muammo hisoblanadi. Chunki bu holat davom etadigan bo‘lsa, insonlarda axborot xavfsizligiga nisbatan Shubha paydo bo‘ladi. Biz bu holatni eng kerakli qiladigan ishimiz dasturchilikni kuchaytirishimiz kerak. Misol uchun tasavvur qilaylik, bir yurist bilan 5 ta dasturchi birgalikda ish olib boradigan bo‘lsa, ya’ni kiberjinoyat sodir etilgan vaqtda 5 ta dasturchi ushbu jinoyatni qayerda amalga oshirilganini aniqlab bersa, ichki ishlar xodimlarini ushbu jinoyatchini aniqlashsa hamda yurist ushbu jinoyatga nisbatan choralar qo‘llasa, yuqorida aytib o‘tgan statistikamiz ancha yaxshilanadi. Lekin bu yo‘lning ham qiyinchiliklari bo‘ladi, ya’ni agar jinoyatchi chet eldan ishini amalga oshirgan bo‘lsachi? Bu holatda yuqoridagi yurist chet el davlati bilan ushbu jinoyatchini ekstraditsiya qilish masalasini ko‘rib chiqishi hamda Tashqi ishlar vazirligiga kiritishi lozim. Nimaga 5 ta dasturchi? Dasturchilik qiyin kasb hisoblanadi, agar 1 ta dasturchi bo‘lsa, uning bilim doirasida ish olib boriladi, effect kamroq bo‘ladi, endi shu 5 ta bo‘lsa, bunda jinoyatchini aniqlash osonroq kichadi hamda 5 kishidan biri, albatta, topishi mumkin. Yuqorida keltirgan Senat bo‘yicha misolimizda 15 yoshli bola o‘z intervyusida ham o‘z sohasining eng kuchli vakili bo‘lmoqchi bo‘lganini aytib o‘tgan. Shunday insonlardan davlat to‘g‘ri yo‘lda foydalanishi lozim, ya’ni ular bilan shartnoma tuzib, kiberjinoyatchilarni aniqlashi lozim. Chunki bunday bolalar keying 3-4 yilda dasturchilik sohasida tinmay mehnat qiladigan bo‘lsa, kiberjinoyatchilikni aniqlashda statistika yuqorilaydi. Shuning uchun biz ommaning kompyuterga nisbatan

munosabatini o‘zgartirishimiz kerak, dasturchilikni rivojlantirish hamda dasturchilardan to‘g‘ri foydalanishimiz kerak.

Foydalanilgan manbalar:

1. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni - <https://lex.uz/docs/-83472>
2. Saidov, J. D. Study of the process of database and creation in higher education. Guliston. 2021. - <https://www.inacademy.uz/index.php/cajmrms/article/view/29188/18768>
3. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/acts/-52268>
4. <https://content.iospress.com/articles/information-infrastructure-and-policy/iip086> - Information systems in Japanese government
5. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-83472>
6. “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-6213382>
7. “Axborotlashtirish sohasida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori - <https://lex.uz/docs/-925847#-927048>
8. “Elektron hujjat aylanishi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-165079>
9. “Davlat sirlarini saqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/docs/-98850#-98878>
10. Jinoyat kodeksi – XXI bobi – Axborot sohasiga oid jinoyatlar - <https://lex.uz/acts/-111453>
11. “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni - <https://lex.uz/uz/docs/-5960604>
12. Kun.uz - <https://kun.uz/news/2023/08/10/oz-sohamda-eng-kuchli-mutaxassis-bolishni-xohlayman-senat-saytini-buzib-kirgan-15-yoshli-haker-bilan-suhbat?q=%2Fuz%2Fnews%2F2023%2F08%2F10%2Foz-sohamda-eng-kuchli-mutaxassis-bolishni-xohlayman-senat-saytini-buzib-kirgan-15-yoshli-haker-bilan-suhbat>